

Nuhning o'g'li



15:05 / 19.01.2020 3049

20

Nuhning bir o'g'li bo'lib, u kofirlar bilan birga edi. Nuh o'z o'g'lini to'fon ichida ko'rib: **«Ey o'g'lim, biz bilan birga mingin, kofirlar bilan birga bo'lmagin, desa, u (o'g'il): «Toqqa joylashib olsam, meni suvdan saqlaydi», dedi. U esa: «Bugun Allohning amridan saqlovchi yo'qdir. Faqat rahm qilganlari bundan istisno», dedi. Shunda oralarini to'lqin to'sdi va u (o'g'il) g'arq bo'lganlardan bo'ldi».** (Hud surasi, 42-43oyat).

Nuh o'g'liga mahzun bo'ldi, qanday mahzun bo'lmasin, axir u o'z o'g'li-ku? O'g'lini, agar kecha suvdan qutqara olmagan bo'lsa, qiyomat kunida olovdan qutqarishni xohladi. Albatta olov suvdan shiddatlidir, oxirat azobi esa undan ham mashaqqatdir. Alloh unga o'z ahlini qutqarishini va'da qilmaganmidi? Yo'q! Albatta Allohning va'dasi haqdir! U esa, o'g'li uchun, Alloh huzurida shafokatni xohladi.